

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI KENGASHI YIG'ILISHINING
BAYONI**

Qarshi shahri

6-son

2024-yil 06-fevral

Kengash a'zolari - 41 nafar

Qatnashdilar - 31 nafar

Qatnashmadi - 10 nafar (sababli)

1. Qarshi davlat universitetida 2023-yil tarmoq jadvalida kiritilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha tahliliy hisobot
2. 2023 yilda faoliyat yuritgan ilmiy darajali professor-o'qituvchilarga haq to'lash to'g'risida

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov

3. Universitetda xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot

Universitet xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi A.Norov

Turli masalalar.

4. Universitetning vakant (bo'sh) kafedra mudiri, professori, dotsenti, katta o'qituvchisi, o'qituvchi lavozimlariga tanlov masalalari

Кенгаш котиби

5. Universitet professor-o'qituvchilarini OAKga dotsent ilmiy unvoniga tavsiya etish to'g'risida
6. Tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash to'g'risida
7. Doktorant, tayanch va maqsadli doktorant, stajyor-tadqiqotchi, mustaqil izlanuvchilarning dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi ish rejalari, tayanch va maqsadli doktorantlarning mutaxassislik bo'yicha nazariy-metodologik dasturini tasdiqlash to'g'risida
8. Universitetda ilmiy tadqiqot laboratoriyalarini tashkil qilish xususida
9. "QarDU xabarlar" jurnali faoliyatini o'rganish natijalari to'g'risida
10. Qarshi davlat universiteti professor-o'qituvchilarining 2024 yil xorijiy oliy ta'lim muassalarida malaka oshirish yoki stajirovka o'tashga yuborish rejasini tasdiqlash haqida

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov

11. Professor-o'qituvchilarning monografiyani nashrga tavsiya etish

Kengash kotibi

Universitet Kengashi raisi, rektor D.Nabiyev Kengash ishini boshlashdan oldin universitetning bir qancha professor-o'qituvchilarini ilmiy unvon va ilmiy daraja olganligi bilan tabriklab, diplom va sovg'alar taqdim etdi.

Shundan so'ng Kengash kun tartibiga kiritilgan masalalar a'zolar tomonidan tasdiqlandi va yig'ilish davom ettirildi.

1-masala.

Qarshi davlat universitetida 2023-yil tarmoq jadvalida kiritilgan vazifalarning bajarilishi bo'yicha tahliliy hisobot

Ushbu masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov ma'lumoti tinglandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil natijalari bo'yicha, ilmiy yo'nalishda yuqori ko'rsatkichga erishgan professor-o'qituvchilar 1-ilovaga muvofiq belgilangan miqdordagi pul mukofoti (bir martalik) miqdorida moddiy rag'batlantirilsin.

3. Eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan kafedralar 2-ilovaga muvofiq moddiy texnik ba'zasiga qurilma va jihozlar bilan rag'batlantirilsin.

4. Quyi ko'rsatkichga ega bo'lgan Ingliz tili va adabiyoti (D.Bobonazarova), Jismoniy tarbiya va sport (SH.Sultonov), Rus tili va adabiyoti (D.Pardayeva), Nemis tili va adabiyoti (A.Maxmudov) Lingvistika (M.Omonova), Davolash va pediatriya ishi (T.Mamarasulov) kafedradagi ilmiy pedagogik faoliyat samaradorligi pastligi ko'rsatib o'tilsin va ko'rsatkichlarni oshirish vazifasi yuklatilsin.

5. Professor o'qituvchilarning 2023-yil faoliyati bo'yicha reyting ko'rsatkichlarida umuman ko'rsatkichga ega bo'lmagan va universitet mavjud ko'rsatkichlarini pasayishiga sababchi bo'lgan (ilovaga muvofiq) professor o'qituvchilarga intizomiy chora "xayfsan" berilsin.

6. Ushbu qaror ijrosi nazorati I.Bekpulatovga yuklatilsin.

2-masala.

Qarshi davlat universitetida 2023-yilda faoliyat yuritgan ilmiy darajali professor- o'qituvchilariga qo'shimcha haq to'lash to'g'risida

Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning axboroti:

Universitet Kengashi ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektorining ilmiy darajali professor-o'qituvchilarga qo'shimcha haq to'lash to'g'risidagi axborotini tinglab, Kengash

QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosasiga ko'ra ilovaga muvofiq asosiy shtatda faoliyat yuritayotgan 229 nafar professor o'qituvchiga belgilangan tartibda 2024-yil 1-yanvardan 31-dekabrga qadar har oylik va bir martalik ustama tayinlansin.

3. Ushbu qaror ijrosi nazorati ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov va Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor X.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

3-masala.

Universitetda xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan olib borilayotgan ishlar haqida ma'lumot

Ushbu masala yuzasidan Universitet xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi A.Norov axborot berdi va ma'ruzasida quyidagilarni ta'kidlab o'tdi:

1.1. Madaniy-ommaviy tadbirlar bo'yicha.

Universitetda o'tkaziladigan milliy bayramlar, muhim sanalar, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, turli mavzularda tashkil etilgan tanlovlar munosabati bilan universitetda faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni rag'batlantirish va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, viloyatimiz va respublikamiz bo'ylab sayohatlar uyushtirish, shuningdek, universitetda uzoq yillar mehnat qilib, hozirgi kunda keksalik gashtini surayotgan nuroniy xodimlarimiz xonadoniga borib, ularning holidan xabar olish, bularning barchasi madaniy-ommaviy tadbirlar turkumiga kiradi.

1) universitetda tashkil etilgan barcha umumxalq bayramlari, muhim sanalarni nishonlash bilan bog'liq tadbirlar, hukumatimiz tomonidan kam ta'minlangan fuqarolar va ayniqsa, yoshlarimiz ma'naviyatini yuksaltirish bilan bog'liq tashkil etilgan barcha tadbirlarda universitet kasaba uyushma qo'mitasi faollik bilan qatnashib kelmoqda.

2) bugungi kunda ishlash layoqatini yo'qotgan va uyda keksalik gashtini surayotgan sobiq xodimlarimiz (professor-o'qituvchilar, o'quv-yordamchi

xodimlar va xo'jalik xodimlari barchasi) soni 32 nafar bo'lib, yil davomida ulardan barchasining xonadoniga tashrif buyurildi, holidan xabar olindi, bayramlarda sovg'alar bilan borib, hurmat ko'rsatildi.

3) universitet xodimlari uchun Samarqand shahri va Xorazm viloyatlariga sayohatlar uyushtirildi.

Umuman, bunday madaniy-ommaviy tadbirlar uchun o'tgan 2023 yil davomida qo'mita hisobidan jami 135 459 600 so'm miqdoridagi mablag' sarf etildi.

1.2. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari bo'yicha.

Universitet xodimlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini o'tkazish va sport musobaqalari g'oliblarini rag'batlantirish uchun, shuningdek, sport tadbirlari uchun turli sport buyumlarini olib berish maqsadida qo'mita hisobidan 40 150 000 so'm miqdorida mablag' ajratildi.

1.3. Sanatoriy yo'llanmalari bo'yicha.

Respublika miqyosidagi turli sanatoriylarda dam olishi va davolanishi uchun universitet professor-o'qituvchilari va ishchi-xodimlarining 21 nafariga ijtimoiy sug'urta hisobidan 55% chegirma bilan sanatoriy yo'llanmasi berildi va buning uchun 74 004 000,00 so'm miqdoridagi mablag' tasarruf etildi.

Shuningdek, yaqin qarindoshlarini dam oldirish yoki sog'lomlashtirish uchun xodimlarimizning 30 nafariga kasaba uyushma budjeti hisobidan sanatoriy yo'llanmalari berildi, bunda kasaba uyushma budjetidan olingan sanatoriy yo'llanmalari uchun O'zbekiston kasaba uyushmalari Qashqadaryo viloyat kengashi hisob raqamiga 54 411 600 so'm mablag' o'tkazib berildi.

Demak, jami foydalanilgan sanatoriy yo'llanmalari narxi 128 415 600 so'mni tashkil etdi.

1.4. Moddiy yordam va rag'batlantirishlar bo'yicha.

Yaqin qarindoshi vafot etgan, murakkab tashxis bilan davolanib chiqqan yoki sog'ligini endi tiklamoqchi bo'lgan, imkoniyati cheklangan, nogiron farzandi bor bo'lgan, iqtisodiy jihatdan qiynalib qolgan, ijtimoiy holati bo'yicha kam ta'minlangan 74 nafar xodimga kasaba uyushma qo'mitasi tomonidan 52 610 000 so'm miqdorida moddiy yordam berildi.

Shuningdek, kasaba uyushma qo'mitasi ishlari va o'tkazadigan tadbirlarida doimiy ishtirok etadigan 102 nafar faol xodimlar qo'mita mablag'lari hisobidan 46 850 000 so'm pul mukofoti bilan rag'batlantirildi.

Ta'kidlash joizki, universitet tomonidan xodimlarimizga moddiy yordam berish va ba'zi xodimlarimizni universitetning budjetdan tashqari mablag'lari hisobidan rag'batlantirish uchun ish beruvchiga kasaba uyushma qo'mitasi taqdim etgan tavsiyalarning barchasi ijobiy tarzda o'z ijrosini topdi.

1.5. Оромгоҳлар бўйича.

Yozgi ta'til vaqtida universitet xodimlarining farzandlarini Yakkabog' tumanida joylashgan "Yosh kimyogar" oromgohida dam oldirish uchun 19 720 000 so'm mablag' qo'mita hisobidan yo'naltirildi.

1.6. Ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy masalalar bo'yicha.

1) 2022-2023 o'quv yili yakunida universitetimizda ichki o'rindosh sifatida faoliyat ko'rsatgan 500 nafarga yaqin professor-o'qituvchilarning mehnat ta'tili va hisob-kitob (rasschetnoy) pulini berish uchun huquqiy asos yetarli emasligi yoki boshqacha aytganda, umummeyoriy va lokal hujjatlarda oshkor bayon etilmaganligi bilan bog'liq muammolar qo'mita yig'ilishida ko'rib chiqilib, jamoa shartnomasiga qo'shimcha band kiritish orqali hal etildi.

2) qo'mita yig'ilishlarida 41 nafar xodimning intizomiy jazo olganligi va uni bekor qilish haqidagi iltimosnoma-murojaatlari ko'rib chiqildi, tahlil qilindi va ish beruvchiga tavsiya-taqdimnoma kiritish orqali 2023 yil davomida shulardan jami 35 nafar xodimning intizomiy jazosi muddatidan oldin bekor qilindi.

2. Joriy 2024 yilda belgilangan rejalar.

1. Respublika miqyosida tashkilot ma'muriyati va kasaba uyushma qo'mitasi o'rtasida 2024-2026 yillarga mo'ljallangan jamoa shartnomasini tuzish rejalashtirilgan. Bizning universitetda yangi jamoa shartnomasini qabul qilish joriy yilning mart-aprel oylarida amalga oshiriladi.

2. Universitet ma'muriyati bilan kelishgan holda aniq grafik asosida viloyatimizdagi muzey va turli tarixiy obidalar, shuningdek, respublikamizdagi tarixiy shaharlarga ziyorat-sayohatlarini uyushtirish rejalashtirilgan.

3. Shuningdek, kasaba uyushmalar tizimida e'lon qilingan barcha ko'rik-tanlovlarda faol ishtirok etish, universitetda mehnat muhofazasi va xavfsizligi bo'yicha jamoatchilik nazoratini tashkil etish, universitetning yosh olimlari, mehnat faxriylari va o'z sohasida muayyan yutuqlarga erishgan professor-o'qituvchilarini rag'batlantirib borish, universitetdagi kam ta'minlangan, imkoniyati cheklangan, qaramog'ida nogiron farzandi bor bo'lgan xodimlarimizni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq reja asosida ish olib borish ko'zda tutilgan.

Yuqoridagilarni inobatga olib Kengash

QAROR QILADI:

1. Universitet xodimlar kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi A.Norov ma'ruzasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Turli masalalarda 4,5,6,7,8,9,10,11,12 masalalar ham ko'rib o'tildi.

8-masala.

Universitetda ilmiy tadqiqot laboratoriyalarini tashkil qilish xususida

Ushbu masala yuzasidan Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov ma'lumoti tinglandi.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Kengash

QAROR QILADI:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatovning universitetda 2024-kalendar yilida ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarini tashkil etish to'g'risida ma'lumoti qabul qilinsin va yuqoridagi laboratoriyalar tashkil etilsin. Universitet professor-o'qituvchilari va kafedra mudirlaridan quyidagi ro'yxat bo'yicha laboratoriya mudiri etib tasdiqlansin.

-Eksperimental psixologiya ilmiy tadqiqot laboratoriyasi mudirligiga Psixologiya kafedراس professori, psixologiya fanlari doktori, dots. Mavluda Fayziyeva;

-Tuproqshunoslik ilmiy-tadqiqot laboratoriyasi mudirligiga Agrokimyo va ekologiya kafedراسi mudiri, biologiya fanlari falsafa doktori, dotsent Muhabbat Diyorova.

2. Tashkil qilinayotgan ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarining moddiy-texnik ba'zasini shakllantirish, laboratoriyaga kerakli shart-sharoit yaratish va kerakli jihozlarni universitet mablag'lari hisobidan olib berilsin.

3. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor I.Bekpulatov hamda Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor X.Djurayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi:

D.Nabiyev

Kengash kotibi:

G.Tojiyeva

